



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

SURDOPEDAGOGIKADA PRAGMATIK KOMPETENSIYANING MOHIYATI VA MAZMUNI

Abdullayeva Nargiza O'ktamovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti, surdotarjimon.

Annotatsiya

Maqolada kompetentlik va pragmatika to'g'risida fikrlar yuritilgan. Imkoniyati cheklangan insonlar orasidagi eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslarning shaxslararo muloqotini yo'lga qo'yish yuzasidan lingvistik kompetensiyaning shakllanishi tahlil qilingan. Insonning umumiy bilish xazinasini boyib borishda lingvistik kompetensiyalarning o'zni bosqichma-bosqich yoritilgan Pragmatik kompetensiyada kreativ faoliyatni shakllantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, pragmatik kompetensiya, ENB shaxsning UBX si, O'zbekiston Karlar Jamiyati (O'zKJ), kreativ tafakkur.

СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ ПРАГМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В СУРДОПЕДАГОГИКЕ

Абдуллаева Наргиза Октамовна

Джизакский государственный педагогический университет, сурдопереводчик

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы компетентности и прагматики. Проанализирована формирование лингвистической компетенции для налаживания межличностного общения среди лиц с ограниченными возможностями, включая людей с нарушениями слуха. Постепенно раскрывается роль лингвистических компетенций в обогащении общего знания человека. Также даны рекомендации по формированию креативной деятельности в рамках прагматической компетенции.

Ключевые слова: компетенция, прагматическая компетенция, общая база знаний лиц с нарушениями слуха, Общество глухих Узбекистана (ОГУ), креативное мышление.

THE ESSENCE AND CONTENT OF PRAGMATIC COMPETENCE IN SURDOPEDAGOGY

Abdullayeva Nargiza O'ktamovna

Jizzakh State Pedagogical University, Sign Language Interpreter

Abstract

The article discusses competence and pragmatics. It analyzes the formation of linguistic competence in facilitating interpersonal communication among individuals with hearing impairments within the group of people with limited abilities. The role of linguistic competencies in the gradual enrichment of an individual's general knowledge base is explored. Recommendations for fostering creative activity within pragmatic competence are provided.

Key words: competence, pragmatic competence, general knowledge base of individuals with hearing impairments, Uzbekistan Deaf Society (UDS), creative thinking.

Pragmatika (yunoncha pragma, pragmatos – ish, harakat) — semiotika va tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini o‘rganuvchi sohasi; boshqacha aytganda, muayyan belgilar tizimini o‘zlashtirib, undan foydalanuvchi subyektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o‘rganuvchi fan tarmog‘i.¹ Pragmatika haqidagi asosiy g‘oya amerikalik olim Charlos Sanders Pirs tomonidan o‘rtaga tashlangan; yana bir amerikalik olim Charles Uilyam Morris ushbu g‘oyani rivojlantirgan va “Pragmatika” atamasini semiotika bo‘limlaridan birining nomi sifatida amaliyotga kiritgan. Pragmatika insonning ijtimoiy faoliyatini o‘zida qamrab oluvchi nutq jarayoni, muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo‘ladi.⁵

Lingvistik pragmatika aniq shakl, tashqi ko‘rinishga ega emas; uning doirasiga so‘zlovchi subyekt, adresat, ularning aloqa-aralashuvdagi o‘zaro munosabatlari, aloqa-aralashuv vaziyati bilan bog‘liq ko‘plab masalalar kiradi. Masalan, nutq subyekti bilan bog‘liq holda quyidagi masalalar o‘rganiladi: bayonning oshkora va yashirin maqsadlari (biron-bir axborot yoki fikrni yetkazish, so‘roq, buyruq, iltimos, maslahat va‘da berish, uzr so‘rash, tabriklash, shikoyat va boshqalar); nutq taktikasi hamda nutq odobi turlari; suhbat, so‘zlashish qoidalari:

- so‘zlovchining maqsadi;
- so‘zlovchi tomonidan adresatning umumiy bilim jamg‘armasi, dunyoqarashi, qiziqishlari va boshqa xislatlariga baho berilishi;

- so‘zlovchining o‘zi bayon qilayotgan xabarga munosabati kabilar.⁶

Pragmatikada nutq adresati, o‘zaro aloqaga kiruvchilarning munosabatlari, muayyan aloqa vaziyati singari omillar bilan bog‘liq holda ham ko‘plab masalalar o‘rganiladi. Pragmatika g‘oyalari evristik (yo‘naltiruvchi) dasturlash, so‘zlarning tarjimai, informatsion-qidiruv tizimlari va boshqalarni ishlab chiqishda qo‘llanadi.¹

Jahonda bo‘lajak surdotarjimonlarning pragmatik kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish samarali texnologiyalari ta‘lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. Innovatsion ta‘lim sharoitida bo‘lajak surdotarjimonlarning pragmatik kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning mexanizmlarini ishlab chiqish, innovatsion dasturlari asosida multimediali elektron resurslar yaratish va ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.²

Bunday ishlar bilan birgalikda, “ta‘lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish”, O‘zbekistonda surdotarjimonlar bilim darajasini xalqaro standartlar asosida baholash va imo-ishora tilini til sifatida o‘qitish sifatini oshirishga oid tendensiyalarni amaliyotga tatbiq etish ishlari olib borilmoqda.⁸

Jahon oliy ta‘lim muassasalarida innovatsion ta‘lim bo‘lajak surdotarjimonlarning pragmatik kompetentlikni rivojlantirishning metodik tayyorgarligi sifatini ta‘minlash, ta‘lim jarayonini modellashtirish, loyihalashtirish, o‘qituvchilarni axborot texnologiyalar asosida metodik tayyorgarligi takomillashtirish, talabalarning ilmiy salohiyati oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.⁹ Shu jihatdan, bo‘lajak surdotarjimonlarning pragmatik kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishni metodik darajaga ko‘tarish, rivojlanish darajasi diagnostikasini amalga oshirish, modulli ta‘limni yo‘lga qo‘yish, axborot kommunikativlikni faollashtirish, bo‘lajak surdotarjimonlarning professionalligini aniqlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.¹⁰

Ta‘lim muassasalari ijtimoiy faol, ijodiy tafakkurga ega shaxsni, bitiruvchilarda axborot oqimiga yo‘naltirilgan malakalarni shakllantirishga, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish, mustaqil ta‘lim, mavjud bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirishni o‘z oldiga qo‘ygan. Shunday ekan jamiyat hayotida surdotarjimonlarning ahamiyati va imkoniyati

cheklangan shaxsni ijtimoiylashuvdagi rolini kattaligini ongli ravishda ta'limning bir bo'lagi deb hisoblashimiz mumkin.

Pragmatik kompetensiya – shaxsning bayonni (aytiladigan, yoziladigan fikrni) qurish qoidalarini talqin qilish va qo'llash, bayonlarni (fikrlarni) turli kommunikativ funksiyalar uchun kommunkantlarning (muloqot ishtirokchilarining) xususiyatlari va kommunikatsiyaning ijtimoiy va madaniy kontekstiga muvofiq ravishda qo'llash qobiliyati hisoblanadi.⁵

Imo-ishora tilida kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatidagi pragmatik kompetensiyaning komponent tarkibi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

a) ijtimoiy komponent (kommunikatsiyaning ijtimoiy kontekstlari va muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy rollarini talqin qila olish qobiliyati; kommunikasiyaning ijtimoiy maqbul uslubini tanlay olish qobiliyati);

b) ijtimoiy-lisoniy (sotsiolingvistik) komponent (hamsuhbatning ijtimoiy siymosini/portretini yaratish uchun nutq bayonini (ijtimoiy ma'nolar, registrning variatsiyalari va modallik) talqin qilish qobiliyati); kommunikasiya maqsadiga tanlangan ijtimoiy rollarga muvofiq erishish uchun zarur til va nutq vositalaridan foydalanish qobiliyati);

v) ijtimoiy-madaniy komponent (madaniyatlararo shaxslararo o'zaro faoliyat sharoitlarida imo-ishora tilini mamlakatlarining madaniy aspekti haqida olinayotgan axborotni talqin qila olish qobiliyati);

g) nutq komponenti (hamsuhbat tomonidan amalga oshirilgan nutq janrlari tanlovini, nutqiy bayonning kogerentligini talqin qila olish qobiliyati; kommunikativ vazifalarni bajarish uchun nutqiy muloqotni qurish qoidalariga muvofiq nutqiy muloqotni tanlash va amalga oshirish qobiliyati);

d) kompensator komponent (qayta so'rab olish, aniqlik/oydinlik kiritish, axborot-ma'lumotnoma/so'rovnoma resurslaridan foydalanish yo'li bilan imo-ishora tili va ijtimoiy-madaniy masalalarda tushunilmagan joylarni, bo'shliqlarni to'ldirish qobiliyati.⁶

Hozirgi kunda kommunikativ muloqot madaniyati, kommunikativ muloqot odobi, kommunikativ muloqot shakli kabi atamalar tez-tez qo'llanilmoqda. Kommunikativ muloqot bu so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabatlar majmui bo'lib, turli xil omillarga bog'liq holda yuzaga chiqadi.³ Daslabki omil sifatida kompetensiyaning tushunish shart. Chunki muloqotga loyiq bilim va ko'nikmaga ega bo'lish bosh talab hisoblanadi. Kompetentlik tushunchasi hozirgacha ilmiy manbalarda turlicha talqin qilinmoqda. Kompetentlik kompetensiya so'zidan olingan. Kompetensiya lotincha "compete" so'zidan olingan bo'lib, musobaqalashmoq, raqobatlashmoq, bellashmoq degan ma'nolarni anglatadi.¹

Kompetensiya – bilimlar majmuining amalda qo'llanishi. Shaxsning uquvi, hislatlari, fazilatlar, amaliy faoliyatga tayyorgarlik o'lchovi, muommolarni hal qilish, natijalarni qo'lga kiritish, professional faoliyatni ta'minlovchi bilim ko'nikma, malakalarning yaxlitligi, amaliyotga tadbqiq qilingan bilim, o'quv tajriba, maqsadli yo'naltirilgan imotsional iroda kuchi.⁶

Kompetensiyaning dastlab quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin:

1. Standart kompetensiya – doimiy va odatiy vaziyatlarni bajarish qobiliyati (ertalab internet, OAV orqali dunyoda bo'layotgan yangiliklar, kasbiga oid yangiliklar bilan tanishib borish, qurollanish g'oyaviy-siyosiy kompetentlikdir).

2. Asosiy kompetensiya – egallab turgan lavozimiga oid innovatsion vazifalarni bajarish qobiliyati (muayyan lavozim doirasida muommolarni individual yondoshgan holda hal qilish).

3. Yetakchi kompetensiya – kasb faoliyatining yangi turlarini yarata olish qobiliyati (kasbi nuqtayi nazaridan yetuk bilimga ega bo'lishi, muommolarni ko'ra olish, yangi turlarni yaratishga faollik ko'rsatish hamda bosh bo'lish qobiliyati).⁵

Demak dastlabki kompetensiyalarni egallash uchun quyidagi kompetensiyalarni bilish shart.

Ular quyidagilar:

1. Lingvistik kompetensiya (kommunikativ muloqot layoqatiga ega bo'lish).
2. Sotsial kompetensiya (muayyan sotsial qatlamlar, madaniyatlarni tushunish layoqati).

3. Pragmatik kompetensiya (muayyan vaziyatlardan ustalik bilan chiqib keta olish qobiliyatiga ega bo'lish).⁶

Ko'rinadiki har qanday kompetensiyaning bosh omili til kompetentligi yoki kommunikativ muloqot kompetentligidir. Shuning uchun til kompetentligiga erishish tamoyillariga e'tibor qaratish lozim. Bu jarayon insonning atrof-muhitni tushunib, tili chiqayotgan davrdan boshlanadi. Turli xil omillar ta'sirida lingvistik qobiliyat shakllanib boradi. Lingvistik kompetentlikka ega bo'lish asnosida o'zining "umumiy bilish xazinasini"dagi tushunchalar asosida muloqotga kirishadi.¹⁰

Muloqot turli omillarga bog'liq holda "oson" va "qiyin" bo'lishi mumkin. "Oson" bo'lganda, bolaning umumiy bilish xazinasidagi mavjud tushuncha va kompetentlik qobiliyatiga mos vaziyat bo'ladi. "Qiyin" bo'lganda, bolaning umumiy bilish xazinasidagi tushuncha va kompetentlik qobiliyatiga mos kelmagan vaziyat yuzaga kelgan bo'ladi. Yosh bolada umumiy bilish xazinasining rivojlanishga ta'sir etuvchi vaziyat bu "qiyin" vaziyatdir.⁸ Chunki boladagi umumiy bilish xazinasida yangi tushunchalar, yangi so'zlar paydo bo'ladi, kommunikativ muloqot kompetentlik qobiliyatini rivojlantiradi. Shu tarzda bolaning umumiy bilish xazinasini boyib borib, kompetentligi yangi darajaga ko'tariladi.⁹

Bu kompetentlik ijtimoiy munosabatlarda shakllanadi. Shunga ko'ra kommunikativ muloqot va lingvistik kompetensiya ijtimoiy munosabat omili ta'sirida ham boyib boradi. Natijada inson "tili chiqqan"idan boshlab to umrining oxirigacha kompetentligi rivojlanib boradi.¹⁰

Unga dastlab quyidagi omillar ta'sir qiladi:

1. Ijtimoiy munosabat (oilasi, mahalla, maktab, oliy ta'lim, kasbdoshlar, OAV va hokazo).

2. Ijtimoiy muhit (ichki va tashqi muhit).

3. Ta'lim (maktab, oliy ta'lim va texnikumlar, oliy ta'limdan keyingi ta'lim).

4. Tarbiya (oilasi, maktab, mahalla, jamiyat).

5. Kasb-kor (kasbiy muloqotdan olingan kompetensiya).

6. Fan va ilm.

Yuqoridagi omillar ta'sirida umumiy bilish xazinasini boyib, lingvistik kompetensiya bosqichma-bosqich shakllanadi va rivojlanadi. Bizningcha bu bosqichlarni quyidagicha ajratish mumkin:

a) Emperik bosqich ("tili chiqqan"dan boshlab umumiy o'rta ta'lim tizimini tamomlashgacha bo'lgan davr). Bu davrni insoniy munosabatlar ta'sirida umumiy bilish xazinasini boyitib borish, materiallar to'plash bosqichi deb atash mumkin.

b) Nazariy bilish bosqichi – bu bosqichda olingan bilimlar asosida tizimli munosabatlar o'rnatiladi va nazariy xulosalar chiqariladi. Umumta'lim maktabini bitirgan o'quvchilar uchun bu bosqich, o'zlarining kasbiga ega bo'lish uchun o'qish jarayonini davom ettirishni anglatadi.⁹ Bu yerda oliy ta'lim (OT), texnikumlar va oliy ta'limdan keyingi ta'lim (OTM) kabilar kiritiladi.

v) Mental bilish bosqichi – bu bosqich insonning ongida va fikrlash jarayonida sodir bo‘ladigan jarayonlarni ifodalaydi. Inson o‘z hayoti davomida yangi bilimlarni, tajribalarni va qobiliyatlarni shakllantirib boradi.¹⁰

Bu ikki bosqich inson bilimini va fanlarning rivojlanishini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Pragmatik kompetensiyaning mohiyati – bu insonning kommunikativ vaziyatlarda, ya’ni muloqotda to‘g‘ri va samarali fikr almashish qobiliyatini ifodalaydi.² U nafaqat tilni bilish, balki tilni to‘g‘ri va kontekstga mos ravishda ishlatish, maqsadga erishish va qarshiliklarni bartaraf etish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Pragmatik kompetensiya quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi: kontekstni tushunish – suhbatning kontekstini, ya’ni muloqotning o‘ziga xos sharoitlarini va kelishuvlarini anglash; kutilmalar va niyatlar – suhbatdoshning kutilmalarini va niyatlarini aniqlash, ularga mos javob berish; tushuncha va uslublarni tanlash – muloqotda qanday uslub va so‘zlarni tanlash, o‘zaro aloqada muvaffaqiyatli bo‘lish uchun. Yana bir muhim jihat – pragmatik kompetensiya, til qoidalarini bilishdan tashqari, ularni qanday qilib real hayotdagi vaziyatlarda qo‘llashni ham o‘z ichiga oladi.¹⁰ Pragmatik kompetensiya ijtimoiy muloqotda, ta’lim jarayonida, ish faoliyatida va kundalik hayotda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa .Mazkur tadqiqotda surdopedagogika sohasida dolzarb bo‘lgan pragmatik kompetensiyaning mohiyati, tarkibiy tuzilmasi hamda Jizzax viloyati Zarbdor tumanida joylashgan 1-sonli imkoniyati cheklangan Kar va eshitishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarning kommunikativ faoliyatidagi o‘rni tizimli va kompleks yondashuv asosida ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida pragmatika, lingvistik kompetensiya va pragmatik kompetensiya tushunchalarining o‘zaro uzviy aloqadorligi asoslab berildi hamda ularning shaxslararo muloqot jarayonidagi funksional ahamiyati aniqlashtirildi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, pragmatik kompetensiya eshitishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarning kommunikativ jarayonda til birliklaridan to‘g‘ri va maqsadga muvofiq foydalanish qobiliyatini belgilash bilan birga, muayyan ijtimoiy vaziyatlarda kommunikativ niyatni anglash, muloqot strategiya va taktikalarini tanlash hamda ijtimoiy-madaniy kontekstga moslashish imkoniyatlarini ham ta’minlaydi. Ayniqsa, imo-ishora tiliga asoslangan muloqot jarayonida pragmatik kompetensiyaning rivojlanganligi shaxsning ijtimoiy moslashuvi, mustaqil fikrlashi va kommunikativ faolligining oshishida muhim omil sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari pragmatik kompetensiyaning ijtimoiy, sotsiolingvistik, ijtimoiy-madaniy, nutqiy va kompensator komponentlardan tashkil topgan murakkab tizim ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu komponentlarning uyg‘un va muvozanatli rivojlanishi eshitishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarning kommunikativ muloqotda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish, turli kommunikativ vaziyatlarda samarali muloqot olib borish hamda ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, pragmatik kompetensiyaning shakllanishi uzluksiz va bosqichma-bosqich jarayon ekanligi asoslandi. Mazkur jarayon ijtimoiy muhit, ta’lim-tarbiya tizimi, kasbiy faoliyat hamda shaxsiy kommunikativ tajriba bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, surdopedagogik ta’lim jarayonida ushbu omillarni hisobga olgan holda metodik yondashuvlarni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Xususan, bo‘lajak surdotarjimonlar va maxsus pedagoglarni tayyorlash jarayonida pragmatik kompetensiyaning rivojlantirishga yo‘naltirilgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Pragmatik kompetensiyaning rivojlantirish surdopedagogika va surdotarjimonlik faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u eshitishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish hamda

jamiyatga to'laqonli integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotda bayon etilgan ilmiy-nazariy xulosalar va umumlashtirishlar surdopedagogika, maxsus pedagogika hamda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga doir keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rahimov U., Mahammadjonov N. Kompetentlik va pragmatika // Ilmiy xabarnoma. – Andijon: ADU, 2019. – № 1. – B. 45–52.
2. Sakbaeva V. Pragmatik kompetentlikni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent, 2023. – 118 b.
3. Yusupova M. B. Kommunikativ kompetensiya va uning tarkibiy qismlari // Ilmiy maqolalar to'plami. – 2021. – № 12. – B. 234–241.
4. Axmedova M. E. Nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari // Ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2024. – Vol. 28. – B. 156–163.
5. Askarova R. I. Kommunikativ malakalarni shakllantirish asoslari. – Toshkent, 2025. – 29 b.
6. Qodirova F. U. va boshqalar. Surdopsixologiya. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 240 b.
7. Xamidova M. U. Maxsus pedagogika. – Toshkent, 2018. – 256 b.
8. Mavlonova R., Salixova Z. Lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari // Ilmiy tadqiqotlar. – 2023. – Vol. 5. – B. 178–185.
9. Abdullayeva N. O. Imo-ishora tillarining tasnifi // Kasb-hunar ta'limi. – 2024. – № 3. – B. 89–95.
10. Abdullayeva N. O. Og'zaki nutqni rivojlantirishning pedagogik asoslari // Ilmiy-uslubiy jurnal. – 2023. – № 6. – B. 72–78.